

“TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori
A.S. Yuldashev

2017 y.



“Talabalar turar joyida yashash uchun ariza berish” interaktiv xizmati reglamenti

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat nomlanishi:

Qisqa nomi “Talabalar turar joyida yashash uchun ariza berish”
Kengaytirilgan nomi Universitet rasmiy sayti orqali “Talabalar turar joyida yashash uchun ariza berish” xizmati.

1.2. Xizmat natijasi:

Universitet talabalari tomonidan talabalar turar joylarida yashash uchun universitet rektori nomiga jo'natilgan elektron arizani qabul qilish.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti

1.4. Huquqiy asoslari:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2006 yil 17 yanvardagi “talabalar turar joyi faoliyatiga oid yangi taxrirdagi me'yoriy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 11-sonli buyrug'i

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Universitet talabalari

1.6. Ariza berish muddatlari:

Talabalar turar joyida yashash uchun arizalarni o'quv yili davomida taqdim etish mumkin

1.7. Bajarish muddatlari:

Talabalar turar joyida yashash uchun arizalar 3 (uch) oy muddatda ko'rib chiqiladi

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etish

2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi:

Murojaat uchun arizachiga quyidagi axborot berilishi lozim
Xizmat reglamenti mavjudligi va reglament bilan tanishish usullari
Talabalar turar joylarida bo'sh xona mavjudligi va bu xonalar kimlar(qizlar yoki yigitlar) uchun mo'ljallanganligi to'g'risidagi ma'lumot

2.2. Batafsil ma'lumot olish:

“Talabalar turar joyida yashash uchun ariza berish” xizmati to'g'risida axborot berish universitet rasmiy sayti orqali amalga oshiriladi

2.3. So'rovnoma bo'yicha ma'lumot olish:

Ushbu xizmat, universitet rasmiy sayti orqali murojaat etilganda maxsus shakl to'ldirilganidan keyin elektron ko'rinishida ko'rsatiladi

2.4. Xizmat ko'rsatish manzili haqida ma'lumot olish:

AndDU turar joylarining manzili va jamoat transporti yo'nalishlari raqamlari bilan birga ko'rsatiladi

2.5. Foydalaniladigan blankalar:

Ariza elektron shaklda to'ldiriladi

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari:

Xizmat ko'rsatuvchining ish vaqti dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ ga qadar.

3.2. Murojaat javoblarini kutish vaqtlari:

3 (uch) kun

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar:

- Talabalikni tasdiqlovchi xujjat (guvoxnoma);

- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami(PINFL)
- ERI (elektron raqamli imzo)

4.2. Xizmat to'lovi:

Bepul

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy veb saytiga kiriladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Talabalar turar joyida yashash uchun ariza berish" xizmati tanlanadi;
3. Arizachi tomonidan fakultet, yo'nalish (mutaxassislik), bosqich (1-6), ta'lim olayotgan guruh kiritiladi, Talabalar turar joyi raqami (mavjud bo'lsa), jinsi, doimiy yashash manzili (viloyat, tuman, shahar), talabalar turar joyidagi bo'sh xona tanlanadi(mavjud bo'lsa);
4. Talabaning shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) kiritiladi;
5. Talabalikni tasdiqlovchi xujjat (guvoxnoma)ning elektron nusxasi ilova qilinadi;
6. Ariza to'g'ri to'ldirilganligini tasdiqlab, "Elektron raqamli imzo bilan yuborish"

4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:

Mas'ul xodim talabalar turar joyidagi bo'sh xonalar haqidagi ma'lumotlarni tizimga kiritadi.

Talaba tomonidan tanlangan xonada bo'sh joy mavjud bo'lsa, u holda talabaning arizasi qabul qilinadi va bu haqda xabar beriladi.

Rad javobi berilsa, asoslari ariza beruvchiga yuboriladi

4.5. Rad etish sabablari:

- Ariza shakli noto'g'ri yoki to'liq to'ldirilmagan bo'lsa,
- "Universitetdagi talabalar turar joyiga talabalarni joylashtirish tartibi" ga mos kelmagan holatlar bo'lsa
- Talabalar turar joyida bo'sh joy mavjud bo'lmasa
- Universitetning ichki qoidalarida belgilangan boshqa holatlar

"KIRITILDI"

Devonxon va arxiv bo'limi boshlig'i


B. Yunusov
" 01 " 11 2017 y.

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari


v.v.b. N. Mirzaalimov
" 01 " 11 2017 y.